



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GRAFIK
ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH: MAQSADI, MAZMUNI VA
VOSITALARI

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГРАФИЧЕСКИХ ОРГАНИЗАТОРОВ В
ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ЦЕЛЬ,
СОДЕРЖАНИЕ, ИНСТРУМЕНТЫ
USING GRAPHIC ORGANIZERS IN IMPROVING EDUCATIONAL
EFFECTIVENESS: PURPOSE, CONTENT, AND TOOLS

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Mamirjonova Fotimaxon Mashrabjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti fizika-matematika fakulteti amaliy
matematika yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim samaradorligini oshirishda grafik organayzerlardan foydalanishning maqsadi, mazmuni va vositalarini ko'rib chiqadi. Grafik organayzerlar o'quv jarayonida o'quvchilarning ma'lumotlarni anglash va o'zlashtirish qobiliyatini kuchaytirishga yordam beruvchi vizual vositalar sifatida taqdim etilgan. Maqolada grafik organayzerlarning turlari, ta'lim mazmuniga ta'siri va ularning amaliyotda qo'llanish misollari keltiriladi. Shuningdek, grafik organayzerlarning ta'lim jarayonida qanday afzalliklari borligi va o'qitish samaradorligini oshirishda ularning rolini muhokama qiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цель, содержание и средства использования графических органайзеров для повышения эффективности обучения. Графические органайзеры представлены как наглядные инструменты, помогающие учащимся понимать и усваивать информацию в учебном процессе. В статье представлены виды графических органайзеров, их влияние на содержание обучения и примеры их практического использования. Также рассматриваются преимущества графических органайзеров в учебном процессе и их роль в повышении эффективности обучения.

Abstract: This article examines the purpose, content, and means of using graphic organizers to improve educational effectiveness. Graphic organizers are presented as visual tools that help students to understand and absorb information in the educational process. The article presents the types of graphic organizers, their impact on educational content, and examples of their practical use. It also discusses the advantages of graphic organizers in the educational process and their role in increasing the effectiveness of teaching.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Kalit soʻzlar: *taʼlim samaradorligi, grafik organayzerlar, oʻquv jarayoni, vizual vositalar, mantiqiy fikrlash, tashkiliy metodlar, oʻquvchilarning oʻzlashtirishi, mavzularni tizimlashtirish, fikr almashinuvi, interaktiv taqdimotlar*

Ключевые слова: *эффективность обучения, графические органайзеры, учебный процесс, изобразительные средства, логическое мышление, организационные методы, мастерство учащихся, систематизация тем, обмен идеями, интерактивные презентации*

Key words: *educational efficiency, graphic organizers, educational process, visual means, logical thinking, organizational methods, students' mastery, systematization of topics, exchange of ideas, interactive presentations*

KIRISH

Taʼlim samaradorligi oʻquv jarayonining muhim jihati boʻlib, u oʻquvchilarning bilim olish qobiliyatini, ularni faolligini va taʼlim natijalarini belgilaydi. Zamonaviy taʼlimda samaradorlikni oshirishning bir necha yoʻllari mavjud. Grafik organayzerlar taʼlim jarayonida oʻquvchilarning maʼlumotlarni anglashini va ularga ishlov berish qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradigan vizual vositalardir. Ushbu maqolada grafik organayzerlarning maqsadi, mazmuni va taʼlim jarayonidagi oʻrni koʻrib chiqiladi.

Grafik organayzer — bu maʼlumotlarni vizual koʻrinishda taqdim etishga imkon beradigan vositalar boʻlib, ular oʻquvchilarga muayyan mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Grafik organayzerlar turli koʻrinishlarga ega:

- klaster - mavzuni yoki gʻoyani markazga qoʻyib, unga bogʻliq tushunchalarni qamraydi;

- Venn diagrammasi - ikki yoki undan ortiq gʻoyalar orasidagi oʻxshashlik va ulardagi farqlarni koʻrsatish berish muammolarini hal qilish uchun qoʻllaniladi.

- jadval - maʼlumotlarni tartibga solish va solishtirish uchun ishlatiladi.

- miya hujumi xaritasi - gʻoyalarni bogʻlash va ulardan yangi gʻoyalar chiqarish uchun yaratiladi.

Grafik organayzerlar nafaqat oʻrganish, balki oʻquvchilar bilimini baholash uchun ham muhim vositadir. Ular orqali oʻquvchilarning mavzuni qay darajada tushunganini kuzatish osonlashadi. Masalan:

- tugallanmagan diagrammalar yordamida oʻquvchidan kerakli qismlarni toʻldirish talab qilinadi.


- Venn diagrammalari orqali oʻquvchilar tushunchalarni solishtirib, oʻz bilimlarini namoyish etadi.






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- jadvallar orqali tahliliy fikrlash va muhim ma'lumotlarni aniqlash ko'nikmalari rivojlanadi. zBunday vositalar ta'lim jarayoniga reflektiv yondashuvni ham olib kiradi, ya'ni o'quvchilar o'z bilim



a) Ven diagrammasi

b) tahliliy jadvallar



darajalarini o'zlari baholash imkoniga ega bo'ladi. Grafik organayzerlar ta'lim jarayonida bir qator muhim maqsadlar va vazifalarni bajaradi, Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - o'quvchilar o'z fikrlarini tartibga solish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Murakkab tushunchalarni vizual tarzda ifodalash - bu o'quvchilarga tushunchalarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Faol o'qitish metodikalariga asoslanib, bilimlarni mustahkamlash - grafik organayzerlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashi va qabul qilishini yaxshilaydi. Grafik organayzerlar o'quv jarayonida mazmunni osonroq anglash imkoniyatini beradi, Mavzularni tizimlashtirish - o'quvchilar mavzular orasidagi aloqalarni ko'rishadi. O'quv materiallarini oson hazm qilish - vizual ko'rinishdagi ma'lumotlar xotirada yaxshiroq





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

saqlanadi. Bilim darajasini baholash - o'qituvchilar grafik organayzerlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholay oladi. Grafik organayzerlarni yaratish uchun turli xil ko'rinishdagi vositalar mavjud:

- an'anaviy vositalar - asosan qog'oz va taxtalar yoki shu kabi vositalar;
- raqamli vositalar - Google Jamboard, MindMeister, Canva kabi ilovalar.

Biz har ikkala usul yordamida ham grafik organayzerlar yaratishimiz mumkin. Interaktiv taqdimotlar - o'quvchilar guruhiiy ishlar jarayonida grafik organayzerlardan foydalanishi o'qitishda ko'proq faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda raqamli platformalarning ahamiyati ortib bormoqda. Grafik organayzerlar yaratishda qo'llaniladigan mashhur dasturlar mavjud.

Bu platformalar ta'lim jarayonida yanada ko'proq interaktivlikni ta'minlaydi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Grafik organayzerlar turli darajadagi ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'lumotlarni tizimli o'rganish va asosiy tushunchalarni tushunishga yordam berish uchun grafik organayzerlar keng qo'llaniladi. Misollar:

- klasterlar orqali yangi so'zlarni guruhlash va til o'rganishda foydalanish.
- Venn diagrammalari yordamida o'xshash va farqli jihatlarni tushuntirish (masalan, hayvon turlari yoki fasllarni solishtirish).
- jadval va rasmlar bilan ishlash bolalarning vizual fikrlashini rivojlantiradi.


Bu bosqichda grafik organayzerlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'limni yanada qiziqarli qiladi.

O'rta maktab darajasida grafik organayzerlar murakkabroq mavzularni tushuntirish va tizimlashtirishga yordam beradi. Fanlar kesimida qo'llanishi:

- Biologiya darslarida grafik organayzerlar orqali organizmning hayotiy jarayonlari tasvirlanadi (masalan, hujayraning tuzilishi).
 - Adabiyot darslarida xarakterlarni tahlil qilish uchun klasterlardan foydalaniladi.
 - Tarixda voqealar ketma-ketligini ko'rsatish uchun vaqt jadvallari (timeline) tuziladi.
- Oliy ta'lim muassasalarida grafik organayzerlar murakkab ilmiy tushunchalarni tizimlashtirish va ilmiy tadqiqotlarni yengillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.
- guruh bo'lib loyiha va taqdimotlarda miya hujumi xaritalari yordamida g'oyalar ishlab chiqiladi.
 - fanlararo tahlil uchun grafik vositalar orqali tushunchalar orasidagi bog'liqlik ko'rsatiladi.

-tadqiqot loyihalari uchun o'quvchilar kognitiv xaritalar va tahliliy diagrammalar yaratib, o'z izlanishlarini tizimlashtiradilar.





Jadvalli grafik organayzerlarni bog'lash

Bu bosqichda grafik organayzerlar ilmiy izlanish jarayonlarini samarali tashkil etishga, g'oyalarni aniq ifodalashga va ma'lumotlar oqimini boshqarishga yordam beradi.

Grafik organayzerlardan foydalanish ta'limda bir qator ijobiy samaralar keltirib chiqaradi:

1. Tushunishni chuqurlashtirish: O'quvchilar mavzularni vizual ko'rinishda ko'rib, tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni tezroq anglaydilar. Bu, ayniqsa, murakkab mavzularni yengillashtirishda katta foyda keltiradi.

2. O'zlashtirishni kuchaytirish: Vizual vositalar orqali olingan bilimlar yaxshi yodda qoladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilar o'zlashtirgan ma'lumotlarini mustahkamlaydi.

3. Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Grafik organayzerlar o'quvchilarning mustaqil ravishda axborotni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. Faollik va qiziqishni oshirish: O'quvchilar o'quv jarayonida faol ishtirok etadi va mavzuni o'rganishga ko'proq qiziqish bildiradilar. Guruhiy ishlarda grafik organayzerlar yordamida o'quvchilar muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Ta'lim natijalarini yaxshilash: O'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash imkoniga ega bo'ladi, chunki grafik organayzerlar orqali olingan natijalar o'quvchilarning mavzuni qanday tushunganini ochiq ko'rsatadi.

Umuman olganda, grafik organayzerlarni ta'lim jarayonida joriy etish nafaqat o'qitish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi. Ular murakkab bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtirib, ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Shu bilan birga, grafik organayzerlar yordamida o'quvchilar faqat ma'lumotni yodlab olish emas, balki tushunib o'rganishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

undaladi. Grafik organayzerlardan foydalanish ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va o'rganishni qulaylashtirishga xizmat qiladi. Taklif sifatida, ta'lim muassasalari grafik organayzerlarni kengroq joriy etish va o'qituvchilarni ushbu vositalardan samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutishlari lozim. Buning uchun har bir pedagogda yoki dars o'tish uchun mas'ul shaxsda mazkur grafik organayzerlardan foydalanish bo'yicha kerakli malaka va tajribalar mavjud bo'lishi lozim. Chunki garafik organayzerlar ko'rinish jihatdan qiziqarli hamda e'tiborni jalb qiladigan bo'lib, dars davomidagi zerikish yoki charchoqni oldini oladi. Hammaga ma'lumki yuqori sinf o'quvchilari uchun 5 soat yoki 6 soat dasrlar bir un uchun norma sifatida belgilangan va bunda matematika yoki geometriya darslari ko'p hollarda oxirgi soatlarga qo'yilmaydi hamda birinchi soatdan uchinchi soatgacha qoyilishi tavsiya etiladi. Aks holda oxirgi soatlarga qo'yilgan matematika dasrlari o'quvchilarda charchoq hisini keltirib chiqaradi. Ammo birinchi soatdagi darslar ham ko'p hollarda maktab o'quvchilari uchun keyingi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun dars jarayonida grafik organayzerlardan darsning bir qismi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq ko'riladi. Chunki ular qiziqarli bo'lib, bunda o'quvchi ikki taraflama darsni ijobiy deb qaraydi hamda har tomonlama rivojlanish uchun o'ziga qulay sharoit topa oladi. Murakablik darajasi yuqori bo'lgan mavzularni ham mazkur ishlanmalar orqali osonlik bilan tushuntira olish mumkin. Bunday darsda o'quvchilarning diqqat e'tibori tez dasga jalb qilinadi hamda o'quvchilarning darsdagi ishtirokining falligiga erilshiladi. Grafik organayzerlarni ta'limda joriy etishning istiqbollari salmoqli natijalarga olib kelishi mumkin. Ya'ni bunda o'quvchilar dars jarayonini an'anaviy dars jarayonlariga nisbtan yaxshiroq tushunadi hamda qiziqarliroq vaqt o'tkazadi. Umumiy qilib aytganda, grafik organayzerlardan foydalanib, dars jarayoning mazmunini, sifatini yoki hozirgi zamon talabiga mos yo mos emasligini, ommalashtirish uchun yaroqli yoki yaroqli emasligini belgilash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirov, O. M. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ta'limda interfaol metodlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Sultonov, R. A., & Sharipov, A. N. (2018). Ta'lim texnologiyalari va loyihaviy o'qitish metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Turaev, J. (2019). Ta'limda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Rasulova, Z. (2021). Ta'lim jarayonida texnologik yondashuv. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Abdullaeva, G. (2017). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Hasanov, M. (2020). Raqamli texnologiyalar ta'limda. Toshkent: Fan nashriyoti

